**Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

| “Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi | | |
|---|---|---|
| **№** | **Amaliy loyiha mavzusi** | **Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija** |
| | Species Inuli, Species Origani, Glycyrrhiza glabra va Calendula officinalis o‘simliklari asosida yangi kombinirlangan dori vositasini yaratish<br><br>Glycyrrhiza glabra Glycyrrhiza glabra root Glycyrrhiza glabra root extract | **Tadqiqotning shakli:** Amaliy.<br>**Ilmiy-tadqiqot natijalari:**<br>- dorivor xom ashyo tarkibidagi biologik faol moddalarining maksimal ajralib chiqishini ta'minlovchi optimal ekstraktsiya sharoitlari tanlanadi hamda suyuq va quyuq ekstraktlar shaklida murakkab ekstrakt olish texnologiyasi ishlab chiqiladi;<br>- ekstraktlar va yakuniy mahsulot asosiy biologik faol tarkibiy qismlarini zamonaviy fizik-kimyoviy (YuQX, UF, IK, gaz-suyuqlik, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi) usullar yordamida aniqlanadi;<br>- murakkab ekstraktlarning klinikoldi farmakologik tadqiqotlari o‘tkaziladi va o‘ziga xos farmakologik faolligi o‘rganiladi;<br>- suyuq ekstrakt (substantsiya) va sirop (tayyor dori shakli) dori vositasi olinadi;<br>- olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida Species Inuli, species Origani, Glycyrrhiza glabra va Calendula officinalis o‘simliklari xom ashyosidan tibbiyot amaliyotida qo‘llaniladigan yangi dori vositasi yaratiladi;<br>- o‘simliklar xom ashyolari va ular asosida yaratilgan yangi dori vositasining kerakli me'yoriy-texnik hujjatlar to‘plami tibbiyot amaliyotida qo‘llashga ruxsat olish uchun “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasi (DM)ga topshiriladi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish:** Tadqiqot natijalari Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida sinovlardan o‘tkaziladi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish:** Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.<br>**Izoh:** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi. |